Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
"Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiya.....	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.....	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida.....	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи.....	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili.....	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar.....	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklaster tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi.....	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля).....	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish.....	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari.....	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar.....	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari.....	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari.....	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	



O'ZBEKISTON VA ISLOM TARAQQIYOT BANKI: HAMKORLIK VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI



Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti
ORCID: 0009-0003-1886-8262

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston va Islom Taraqqiyot Banki (ITB) o'rtasidagi hamkorlikning shakllanishi, hozirgi holati va istiqbollarini IMRAD tuzilmasi doirasida tahlil qiladi. Tadqiqotda ITB tomonidan O'zbekistonga ko'rsatilgan moliyaviy va texnik yordam, amalga oshirilgan asosiy infratuzilma, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va ta'lim loyihalari o'rganilgan. Metodologik jihatdan hujjatli tahlil va statistik ma'lumotlar asosida baholash usullari qo'llanildi. Tahlil natijalari ITBning “2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasi”ga mos keluvchi sohalarida, xususan, yashil iqtisodiyot, raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalar bo'yicha hamkorlik imkoniyatlari keng ekanini ko'rsatadi. Yakuniy xulosa sifatida maqolada O'zbekiston va ITB o'rtasidagi barqaror rivojlanishga qaratilgan yangi tashabbus va hamkorlik yo'nalishlari ishlab chiqilishi zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Islom Taraqqiyot Banki, iqtisodiy rivojlanish, xalqaro hamkorlik, strategik hamkorlik, 2030-yilgacha bo'lgan strategiya.

Abstract: This article analyzes the formation, current state, and prospects of cooperation between Uzbekistan and the Islamic Development Bank (IsDB) within the IMRAD framework. The study explores financial and technical assistance provided by IsDB to Uzbekistan, focusing on key infrastructure, agriculture, healthcare, and education projects. A document-based analysis and statistical evaluation methods were employed. The findings highlight that cooperation prospects are aligned with the “Development Strategy of Uzbekistan until 2030,” especially in green economy, digital transformation, and innovative technologies. The article concludes by emphasizing the necessity of developing new initiatives and cooperation mechanisms to ensure long-term, sustainable development.

Key words: Islamic Development Bank, economic development, international cooperation, strategic partnership, Development Strategy 2030.

Аннотация: В статье проводится анализ формирования, текущего состояния и перспектив сотрудничества между Узбекистаном и Исламским банком развития (ИБР) в рамках структуры IMRAD. Исследование охватывает предоставленную ИБР финансовую и техническую помощь Узбекистану, включая ключевые проекты в области инфраструктуры, сельского хозяйства, здравоохранения и образования. Применялись методы документального анализа и статистической оценки. Результаты показывают, что сотрудничество соответствует «Стратегии развития Узбекистана до 2030 года», особенно в сферах зеленой экономики, цифровой трансформации и инновационных технологий. В качестве вывода подчеркивается необходимость разработки новых инициатив и механизмов взаимодействия для устойчивого долгосрочного развития.

Ключевые слова: Исламский банк развития, экономическое развитие, международное сотрудничество, стратегическое партнерство, стратегия развития до 2030 года.



KIRISH

O'zbekiston va Islom Taraqqiyot Banki (ITB) o'rtasidagi hamkorlik uzoq yillik tarixga ega bo'lib, ushbu munosabatlar ikki tomonlama manfaatlar asosida izchil rivojlanib bormoqda. ITB – islomiy moliyaviy institut sifatida – rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy va texnik yordam ko'rsatib keladi. O'zbekiston ushbu bank a'ziligiga qabul qilinganidan buyon infratuzilma, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, raqamli iqtisodiyot va yashil energetika kabi ustuvor yo'nalishlarda bir qator samarali loyihalarni amalga oshirdi. ITB 1975-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda 57 ta a'zo davlat manfaatlariga xizmat qilmoqda. Bankning asosiy vazifasi – islomiy moliyaviy prinsiplar asosida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, a'zolarining institutsional salohiyatini oshirish va global taraqqiyotga hissa qo'shishdan iborat. O'zbekiston ITB bilan hamkorlik doirasida transport infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlash, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini isloh qilish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida moliyaviy va texnik ko'mak olgan. Xususan, temiryo'l va avtomobil yo'llarini modernizatsiya qilish, sug'orish tizimlarini yangilash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha bir qancha yirik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Shu bilan birga, mamlakatning "2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasi"da ko'zda tutilgan ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot, raqamli transformatsiya va innovatsiyalar yo'nalishlari bo'yicha ham ITB bilan istiqbolli tashabbuslar amalga oshirilmoqda. 2024-yil aprel oyida imzolangan yangi kelishuv doirasida O'zbekiston hukumati va ITB kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan \$40 millionlik moliyalashtirish loyihasini boshladi. Ushbu mablag'lar murosaba asosidagi moliyaviy qo'llov, tadbirkorlik salohiyatini oshirish, kredit kafolatlari taqdim etish, hamda loyihani boshqarish va nazorat qilish xarajatlarini qoplashga qaratilgan. Loyiha 2025–2027-yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirilib, qo'shimcha investitsiyalar jalb qilinishi rejalashtirilgan. Mazkur hamkorlik tashabbusi O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga xizmat qiladi. Shu orqali, ITB va O'zbekiston o'rtasidagi strategik sheriklik nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki global darajadagi taraqqiyot maqsadlariga erishishda muhim omilga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islom Taraqqiyot Bankining (ITB) boshqa rivojlanayotgan davlatlar bilan hamkorligi O'zbekiston uchun ham muhim tajriba manbai hisoblanadi. Bu borada qator ilmiy tadqiqotlar ITBning mintaqaviy va global miqyosdagi faoliyatini tahlil qilgan. M.S. Karimov ITBning Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston bilan olib borgan hamkorlik yo'nalishlarini chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, bankning asosiy yo'nalishlari – iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda salmoqli o'rin egallaydi. Tadqiqotda O'zbekistonda amalga oshirilgan loyihalar bilan bir qatorda, Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan olib borilgan hamkorlik tajribasi va uning o'zaro foydali jihatlari muhokama qilingan [2].

ITBning iqtisodiy yordamidan tashqari, uning ijtimoiy ta'siri ham alohida e'tiborga molik. R.N. Tursunov o'z tadqiqotida bank tomonidan moliyalashtirilgan sog'liqni saqlash va ta'lim loyihalarini o'rganadi. U O'zbekistonda ijtimoiy sohalarida erishilgan yutuqlar, xizmatlarning sifati va ulardan keng jamoatchilik foydalanish imkoniyatlarining oshganligini qayd etadi [3]. Bu holat ITBning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanishga ham faol ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston va ITB o'rtasidagi hamkorlik natijasida amalga oshirilgan loyihalar mamlakatda nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ITBning islomiy moliyalashtirish prinsiplariga asoslangan yondashuvi bilan O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasi o'zaro uyg'unlashgan. Bu esa kelgusida hamkorlikning yanada mustahkamlanishiga asos yaratmoqda. So'nggi yillardagi tadqiqotlar raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik va innovatsion texnologiyalar sohalarida ITB bilan yanada chuqurroq hamkorlik istiqbollari belgilab bermoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston va Islom Taraqqiyot Banki (ITB) o'rtasidagi hamkorlikning amaldagi holati, erishilgan yutuqlar va istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlarini har tomonlama baholash maqsadida bir nechta ilmiy tahlil usullaridan foydalanildi. Metodologiya sifatida tahliliy, statistik va empirik yondashuvlar qo'llanildi. Tahliliy usul asosida ITB tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarning mazmuni va yo'nalishlari o'rganildi, statistik usullar esa moliyaviy ko'rsatkichlar, investitsiyalar hajmi va ularning natijalari asosida baholashda qo'llanildi. Empirik yondashuv orqali mavjud amaliyotdagi tajribalarga tayanib, real loyihalarning samaradorligi tahlil qilindi. Mazkur yondashuvlar O'zbekiston va ITB o'rtasidagi hamkorlikni kompleks tarzda tahlil qilish va uning kelajakdagi ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida islomiy moliya tizimiga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Mutaxassislar fikricha, islom moliyasi g'arb moliyaviy tizimini inqirozga olib kelgan salbiy omillarga nisbatan barqarorroq yechimlarni taklif qilmoqda. Bugungi kunda islomiy moliyaviy institutlar faqat musulmon davlatlaridagina emas, balki boshqa mamlakatlarda ham faoliyat yuritib, keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Qayd etish joizki, O'zbekiston 2003-yilda Islom taraqqiyot bankiga (ITB) a'zo bo'lgan. O'tgan davr mobaynida umumiy qiymati 2,5 milliard AQSh dollaridan ortiq bo'lgan 30 ta yirik investitsiya loyihasi ma'qullangan. Ushbu loyihalar doirasida maktablar, arzon uy-joylar, avtomobil yo'llari, elektr va ichimlik suvi tarmoqlari qurilgan, sog'liqni saqlash muassasalari esa zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan.

Ta'kidlash lozimki, g'arbdagi an'anaviy banklardan farqli ravishda, islom banklari islomiy moliya qoidalariga qat'iy rioya qiladi va kreditlar bo'yicha foiz (riba) undirilishini taqiqlaydi. Islomiy moliya institutlari kreditdan olinadigan foizsiz faoliyat yuritadi va daromadni mijoz bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan real iqtisodiy faoliyat orqali oladi. Islom banklarining asosiy tamoyiliga ko'ra, kredit sarmoyaga aylantiriladi va bank yoki uning omonatchisi foydani kafolatlanmagan holda, tadbirkorning iqtisodiy muvaffaqiyatiga bog'liq tarzda oladi.

An'anaviy bank tizimidagi kredit uchun foiz – islom bank tizimida mavjud emas. Bu yondashuvga ko'ra, pul tovar emasligi sababli, uni oddiy ssuda tarzida berib daromad olish maqsadga muvofiq emas. Shu jihatdan, islomiy bank kreditdan daromad olishni investitsion faoliyatga bog'laydi. Agar sarmoya real qo'shimcha qiymat yaratsa, bank foyda ko'radi; aks holda, zarar ham taqsimlanadi.

Islom banklarida keng qo'llaniladigan moliyaviy mexanizmlardan biri – "Mushoraka" bo'lib, unda bank va tadbirkor loyihani birgalikda amalga oshiradi. Bank foydani taqsimlashda to'liq ishtirokchi hisoblanadi va daromad hamda zarar sarmoya ulushiga muvofiq taqsimlanadi. "Mudoraba" – depozit asosidagi moliyaviy operatsiya bo'lib, unda bank omonatchining mablag'larini investitsiya loyihalariga yo'naltiradi. Foyda shartnomadagi ulushga ko'ra taqsimlanadi, zarar esa faqat tadbirkorning zimmasiga tushadi. "Murobaha" esa oldi-sotdi asosidagi moliyalashtirish turi bo'lib, bunda bank mijoz nomidan tovar xarid qiladi va ustama bilan sotadi. Bu operatsiya savdo va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lib, foyda shartnoma asosida shakllanadi.

Shuningdek, "Ijar" – uzoq muddatli ijaraga berish, "Zakat" – ehtiyojmandlarga yordam maqsadida ajratiladigan majburiy xayriya solig'i, "Kard al hasan" – ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalar uchun foizsiz ssuda kabi vositalar ham islom bankchiligidagi mavjud. Ushbu moliyalashtirish usullaridan dinidan qat'i nazar, turli mamlakat tadbirkorlari foydalanmoqda. Shu bois, ITBning Yevropa va boshqa mintaqalardagi ofislari faoliyat yuritmoqda.

1-jadval. O'zbekiston va Islom Taraqqiyot Banki hamkorligining asosiy yo'nalishlari va istiqbollari.

Hamkorlik yo'nalishi	Amalga oshirilgan chora-tadbirlar
Infratuzilma rivojlantirish	Yo'llar, elektr va suv tarmoqlari qurilishi
Qishloq xo'jaligi va suv ta'minoti	Sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish
Sog'liqni saqlash va ta'lim	Tibbiy asbob-uskunalar va maktablar qurilishi
Islomiy moliya institutlarini rivojlantirish	Texnik yordam grantlari ajratilishi
Kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish	40 mln dollarlik loyiha: 30 mln – murobaha, 10 mln – ISFD
Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik	200 mln dollarlik barqaror qishloqlar loyihasi
Huquqiy va institutsional bazani mustahkamlash	Islom moliyasiga oid qonunchilik asoslarini ishlab chiqish
Aholi xabardorligini oshirish va ijtimoiy barqarorlik	Tadbirkorlar va aholiga axborot beruvchi dasturlar

Hozirgi vaqtda ITB O'zbekistonning 10 ta asosiy kreditorlari qatorida turibdi. Yaqinda ITB O'zbekistonda islom banki va moliyaviy tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida texnik yordam grantini ajratganligi xalqimiz uchun muhim imkoniyat bo'lib, aholining islomiy moliyadan xabardorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

ITB tomonidan qishloqlarni barqaror rivojlantirish loyihasi uchun 200 million AQSh dollari ajratilishi esa davlatimiz rahbariyatining xalq manfaatlarini ilgari surgan holda, ishonchli xalqaro hamkorlar bilan ishlash salohiyatini namoyon qiladi. Ushbu mablag'lar yordamida mahalliy boshqaruv tizimi va infratuzilma xizmatlarining sifati yaxshilanadi, aholi turmush darajasi, ijtimoiy himoya va chidamlilik darajasi oshadi, kambag'allikni kamaytirishga erishiladi. Bu insonparvarlik yondashuvining amaliy ifodasidir [4].



Kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy xizmatlar turlarini ko'paytirish va islomiy moliyalash salohiyatini kuchaytirish maqsadida 2024-yil 18-aprelda O'zbekiston Respublikasi va Islom taraqqiyot banki o'rtasida "Kichik va o'rta korxonalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash" loyihasi bo'yicha jami 30 million AQSh dollari miqdorida, 3 yillik imtiyozli davr bilan 10 yilga mo'ljallangan moliyaviy bitim imzolandi. Shuningdek, ITBning Islom birdamligi rivojlanish jamg'armasi (ISFD) nomidan yana 10 million dollarlik shartnoma tuzildi. Loyiha doirasida 0,3 million dollar hajmidagi O'zbekiston Respublikasi hissasi soliq va bojxona imtiyozlari shaklida kiritilmoqda.

Qarorga ko'ra, Iqtisodiyot va moliya vazirligi loyiha bo'yicha muvofiqlashtiruvchi organ sifatida belgilanib, 30 million dollarlik mablag' "Biznesni rivojlantirish banki" ATBga, 7,5 million dollari esa "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJga resurs sifatida yo'naltiriladi. Qarz mablag'larini qaytarish, jumladan, ustama va foizlar xarajatlarini tijorat banklari, ishtirokchi kompaniyalar hamda davlat budjeti qoplaydi. Loyiha 2025–2027-yillar davomida amalga oshiriladi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida loyihani amalga oshirish guruhi tashkil etiladi, loyiha uchun yillik xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali tasdiqlanadi. «Spot» nashrining xabar berishicha, 30 million dollar murobaha tamoyili asosida kichik biznesni moliyalashtirishga, 7,5 million dollar esa kreditlar bo'yicha kafolatlar ajratishga yo'naltiriladi. Shuningdek, 1,75 million dollar biznes-injining va salohiyatni oshirish dasturlarini qo'llab-quvvatlashga ajratiladi, qolgan mablag'lar esa audit, boshqaruv va kutilmagan xarajatlarga mo'ljallangan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Markaziy bank bilan hamkorlikda subloyihalarni tanlash mezonlarini ishlab chiqib, ITB mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash tartibini tasdiqladi [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston va Islom Taraqqiyot Banki (ITB) o'rtasidagi hamkorlik modeli global miqyosda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muvaffaqiyatli amaliy tajriba sifatida xizmat qilishi mumkin. Ikkala tomon tomonidan amalga oshirilgan loyihalar, shu jumladan infratuzilma, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim hamda raqamli va yashil iqtisodiyot sohalaridagi tashabbuslar O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. ITB tomonidan ko'rsatilayotgan texnik va moliyaviy yordam vositasida O'zbekistonda qator islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda va bu yordamlar kelgusida ham rivojlanishning yangi bosqichlariga asos bo'lishi kutilmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Islomiy moliya vositalarini mamlakat moliyaviy tizimiga integratsiya qilish bo'yicha huquqiy va institutsional asoslarni kuchaytirish;
- Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun ITB bilan hamkorlikda yangi moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va tatbiq etish;
- Yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va raqamli transformatsiya yo'nalishlarida ITB ishtirokidagi investitsiya loyihalarini kengaytirish;
- Aholi va tadbirkorlar orasida islomiy moliyalashtirish mexanizmlari to'g'risida xabardorlikni oshirish, maxsus o'quv dasturlarini joriy etish;
- ITB bilan hamkorlikni uzoq muddatli strategik hamkorlik darajasiga olib chiqish va institutsional barqarorlikni mustahkamlash.

O'zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasi va ITBning uzoq muddatli rivojlanish yondashuvlari o'zaro mos kelgani sababli, ikki tomonlama hamkorlik istiqbolda yanada keng ko'lamli, barqaror va innovatsion loyihalarga asos bo'lishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.uzdaily.uz/uz/ozbekiston-islom-taraqqiyot-banki-bilan-hamkorlikda-kichik-va-orta-biznesni-qollab-quvvatlash-loyahasini-ishga-tushirmoqda/>
2. M. S. Karimov. Regional Cooperation and Development in Central Asia. 2018-yil.
3. R. N. Tursunov. Social Impact of Islamic Development Bank's Projects in Central Asia. 2019-yil.
4. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-va-islom-taraqqiyot-banki-hamkorlik-va-rivojlanish-istiqbollari>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/07/itb/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
